



O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIDA YASHIL MOLIALASHTIRISH KO'RSATKICHLARI TAHLILI VA UNING BARQAROR RIVOJLANISHDAGI O'RNI

Xamrayeva Sevinch Xurshid qizi,

Toshkent xalqaro universitetining

Biznes va innovatsion ta'lim fakulteti talabasi.

Ibroximjon Foziljonov,

Toshkent xalqaro universiteti dotsenti, iqtisodiyot fanlari doktori.

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v18iC.1752>

MAQOLA HAQIDA/O' STAT'YE

Qabul qilindi: 16-iyun 2026-yil

Tasdiqlandi: 18-iyun 2026-yil

Jurnal soni: 18-C

Maqola raqami: 37

KALIT SO'ZLAR/КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

yashil moliya, tijorat banklari, iqlim
xavflari, barqarorlik obligatsiyalari, ESG,
CO₂ emissiyasi, qayta tiklanuvchi energiya

ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Ushbu maqolada O'zbekiston tijorat banklari faoliyatida yashil moliyalashtirish mexanizmlarining rivojlanish tendensiyalari va ularning mamlakat ekologik-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi institutsional o'rni ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida iqlim o'zgarishi bilan bog'liq makroiqtisodiy xavflar, xususan, tabiiy ofatlar va ekologik inqirozlarning yalpi ichki mahsulot dinamikasiga ko'rsatayotgan salbiy ta'sir mexanizmlari atroflicha yoritilgan. Shuningdek, tijorat banklarining yashil kredit portfelini tarkibi, ularning tarmoqlar kesimida taqsimlanishi hamda barqarorlik obligatsiyalari bozorining shakllanish jarayonlari chuqur o'rganilgan. Maqolada rivojlangan davlatlarning yashil moliyalashtirish sohasidagi ilg'or tajribasi O'zbekiston sharoitiga moslashtirilgan holda qiyosiy tahlil qilinib, milliy bank tizimida yashil moliyaviy instrumentlarni yanada takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari nafaqat akademik doiralar, balki tegishli davlat boshqaruv organlari va bank-moliya institutlari uchun ham amaliy ahamiyatga ega bo'lib, ular yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasini shakllantirishda foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

ABOUT THE PAPER

Accepted: 16 June 2026

Approved: 18 June 2026

Volume: 18-C

Paper number: 37

KEYWORDS

green finance, commercial banks, climate
risks, sustainability bonds, ESG, CO₂
emissions, renewable energy

ANNOTATION

This article analyzes the development trends of green financing mechanisms in the activities of commercial banks in Uzbekistan, as well as their institutional role in ensuring the ecological and economic sustainability of the country from both scientific-theoretical and practical perspectives. The study comprehensively examines the macroeconomic risks associated with climate change, in particular the mechanisms through which natural disasters and environmental crises exert a negative impact on the dynamics of gross domestic product. Furthermore, the composition of commercial banks' green credit portfolios, their sectoral distribution, as well as the processes underlying the formation of the sustainability bonds market, have been thoroughly investigated.

The article presents a comparative analysis of the advanced international experience of developed countries in the field of green financing, adapted to the conditions of Uzbekistan, on the basis of which scientifically substantiated proposals have been developed for the further enhancement of green financial instruments within the national banking system. The findings of the research hold practical significance not only for academic circles but also for relevant state governance bodies and banking-financial institutions, as they may serve as a useful guide in shaping the strategy for the transition to a green economy.

Kirish. Global iqlim o'zgarishi hamda ekologik muammolarning ortib borishi jahon moliyaviy tizimi oldiga resurslardan oqilona foydalanish va ekologik barqarorlikni ta'minlash vazifasini qo'yimoqda. O'zbekiston sharoitida resurs sig'imining yuqoriligi hamda suv va yer resurslarining degradatsiyasi sharoitida iqlim moslashuv choralarini moliyaviy integratsiyalash o'ta dolzarb masalalardan biridir. Iqtisodiy modellashirish natijalariga ko'ra, iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlari yumshatilmasa, 2050-yilga kelib O'zbekiston yalpi ichki mahsuloti (YaIM) kutilgan potentsial darajadan 10 foizga kichikroq bo'lishi xavfi mavjud. Bunga qo'shimcha ravishda, mamlakatda havodagi PM2.5 zarrachalari ifloslanishidan kelib chiqadigan yillik salomatlikka yetkazilgan zarar YaIMning 6.5 foizini tashkil etadi. Parij bitimi (2018) va COP26 majburiyatlariga ko'ra, O'zbekiston 2030-yilga borib issiqxona gazlari emissiyasini YaIM birligiga nisbatan 35 foizga kamaytirish hamda qayta tiklanuvchi energiya ulushini 54 foizga yetkazishni maqsad qilgan. Ushbu maqsadlarga erishishda tijorat banklarining yashil moliyalashtirish instrumentlarini rivojlantirish muhim tayanch bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekiston tijorat banklarining yashil kreditlash va barqarorlik obligatsiyalari orqali ekologik-iqtisodiy samaradorlikni oshirishdagi amaliy natijalarini hamda adabiyotlardagi nazariy-amaliy qarashlarni tahlil qilish va baholashdan iborat.

Adabiyotlar tahlili. Yashil moliya va bank sektorida ESG mezonlarini qo'llash xalqaro hamda mahalliy iqtisodchi olimlar va xalqaro tashkilotlar diqqat markazida bo'lib kelmoqda.

B.Scholtens [1] va P.Soundarajan hamda N.Vivek [2] tadqiqotlarida ko'rsatilishicha, tijorat banklari nafaqat kapital vositachisi, balki ekologik xavflarni boshqarish orqali iqtisodiy resurslarni qayta taqsimlovchi asosiy institut hisoblanadi. U.Volz [3] Osiyodagi rivojlanayotgan mamlakatlarda yashil kreditlarning o'sishi davlatning institutsional rag'batlari hamda

Markaziy banklarning regulativ siyosatiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqligini isbotlagan.

BMT va Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (IMF, 2021) hisobotlarida ta'kidlanishicha, iqlim o'zgarishi oqibatida yuzaga keladigan fizik va o'tish xatarlari banklarning aktivlar sifatiga bevosita salbiy ta'sir ko'rsatadi. Markaziy Osiyo mintaqasi uchun xos bo'lgan qurg'oqchilik va suv resurslari tanqisligi agrardor mamlakatlar bank tizimida kredit risklarini sezilarli darajada oshiradi.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar hamda mahalliy tadqiqotchilar tomonidan tijorat banklarida yashil obligatsiyalar, korporativ obligatsiyalar va imtiyozli yashil kreditlash mexanizmlari iqtisodiyotni uglerodsizlashtirish omili sifatida baholanmoqda. Biometrik va ESG-ko'rsatkichlarini bank tavakkalchiliklarini boshqarish tizimiga kiritish lozimligi bo'yicha nazariy takliflar berilgan bo'lsa-da, ularning amaliyatdagi miqdoriy va sifat ko'rsatkichlarini tizimli tahlil qilishga bo'lgan ehtiyoj saqlanib qolmoqda.


Metodologiya. Tadqiqotda qiyosiy tahlil, statistik guruhlash, strukturaviy dinamika va empirik ma'lumotlarni umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning axborot bazasini BMTning O'zbekistondagi hisobotlari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va bir qator tijorat banklarining rasmiy ma'lumotlari va hisobotlari tashkil etadi.

Tahlil jarayonida iqlim xavflarining iqtisodiyotga ta'sirini baholash uchun BMT hisob-kitoblari tayanigan holda makroiqtisodiy yo'qotishlar baholandi. Tijorat banklarining yashil loyihalar bo'yicha samaradorligi esa ajratilgan kreditlar hajmi, tejalgan energiya (MWh/yil), qisqartirilgan issiqxona gazlari hajmi (CO₂/yil) va suv tejash ko'rsatkichlari dinamikasida tahlil qilindi.

Natijalar. O'zbekiston bo'yicha tabiiy ofatlar tufayli yuzaga keladigan joriy o'rtacha yillik iqtisodiy yo'qotishlar 3 072.5 mln AQSh dollarini yoki YaIMning 3.0 foizini tashkil etadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tabiiy ofatlar natijasida yuzaga keladigan yillik yo'qotishlar, ayniqsa qurg'oqchilikning salbiy ta'siri iqtisodiyot uchun jiddiy tahdid hisoblanadi. Ushbu tahdidlarni kamaytirish

uchun Yashil moliya va barqaror rivojlanishga yo'naltirilgan moliyalashtirish mexanizmlari muhim ahamiyat kasb etadi. Yashil investitsiyalarni jalb qilish orqali ekologik loyihalarni amalga oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va iqlim o'zgarishiga qarshi samarali choralar ko'rish imkoniyatlari kengayadi.



1-rasm. Tabiiy ofatlar bo'yicha yillik yo'qotishlarning YaIMdagi ulushi (%)

Iqlim xavflari, ekologik muammolar va atrof-muhit bilan bog'liq xatarlar mamlakat iqtisodiyoti uchun yana bir doimiy noaniqlik manbai aylanib borishi turgan gap. Bizningcha, bunday muammolar mavjud tabiiy resurslarning yemirilishidan kelib chiqayotgan yuqori iqtisodiy xarajatlarga qo'shimcha yuk bo'lishi aniq. Bu borada zudlik bilan tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqilmasa, iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlariga vaqt o'tgan sayin ortib boraveradi. Iqtisodiy modellashtirish natijalaridan ma'lum bo'lishicha, iqlim o'zgarishi sababli 2050-yilga kelib O'zbekiston iqtisodiyoti aslida erishilishi mumkin bo'lgan darajaga nisbatan 10 foizga kichikroq bo'ladi. Bu esa bandlik darajasining kamayishi va kambag'allikning ortishiga olib kelishi ehtimoli juda yuqori bo'lishi ko'rsatadi.

O'zbekiston iqtisodiyoti hozircha resurslarga yuqori darajada tayanadigan model asosiga qurilganligi bois Markaziy Osiyodagi davlatlar ichida eng ko'p energiya va resurs sarf qiluvchi mamlakatlardan biri hisoblanadi. Shu sharoitda yaqin yillarda prognoz qilinayotgan aholining jadal o'sishi va iqtisodiy kengayish atmosferaga chiqindilar hajmining ham sezilarli darajada ortishiga sabab bo'ladi. Bu esa tabiiy resurslar va ekotizimlarga haddan tashqari bosim tushishiga olib kelishi mumkin.

Bundan tashqari, iqlim o'zgarishiga moslashishga doir qat'iy choralar ko'rilmasa, bu holat O'zbekiston aholisi uchun jiddiy ijtimoiy va iqtisodiy muammolarga olib keladi. Bundan ko'rinib turibdiki, mamlakat barqaror o'sishni ta'minlash bilan birga, iqlimga moslashuv choralari bilan davomli amalga oshirishi zarur.

Bugungi kungacha mamlakatimizda bir qator tijorat banklari tomonidan ko'plab loyihalar uchun Yashil kreditlar ajratilib kelinmoqda. Bu kabi loyihalar mamlakatimiz duch kelayotgan ekologik xavf-xatarlarni kamaytirishga xizmat qilib kelmoqda. Ayniqsa, issiqxona gazlar miqdorini kamaytirish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini ko'paytirish ushbu tashabbusning asosiy maqsadi hisoblanadi. Quyidagi jadvallarda Respublikada faoliyat yuritayotgan tijorat banklari tomonidan moliyalashtirilgan Yashil loyihalar aks ettirilgan. Bank tomonidan Yashil loyihalar bo'yicha jami 800 million so'm moliyalashtirilganligi natijasida yiliga taxminan 134 tonna CO₂ ekvivalenti issiqxona gazlari kamaytirilmoqda. Bundan tashqari, ushbu loyihalar hisobiga har yili 220 MWh dan ortiq qayta tiklanuvchi energiya ishlab chiqarilmoqda. Bu ko'rsatkichlar bankning Yashil moliyalashtirish sohasidagi faoliyati iqtisodiy samaradorlik bilan bir qatorda ekologik barqarorlikka ham sezilarli ta'sir ko'rsatayotganligini isboti sifatida ko'rsatishimiz mumkin.

Bundan tashqari, "O'zsanoatqurilishbank" ATB tomonidan chiqarilgan barqarorlik obligatsiyalari mablag'lari energiya samaradorligi, toza transport, suv samaradorligi, Yashil binolar va qayta tiklanuvchi energiya loyihalariga yo'naltirilgan bo'lib ushbu taqsimot, bir vaqtning o'zida bankning moliyaviy va ekologik barqarorlik maqsadlariga faol hissa qo'shayotganligini ko'rsatadi. Quyidagi jadvalda esa mablag'larning loyihalar kesimida yo'naltirilishi batafsil keltirib o'tamiz.

2-jadval

"O'zsanoatqurilishbank" ATBning barqarorlik obligatsiyalari mablag'larining taqsimoti [5]

Valyutada chiqarilgan obligatsiyalar					
T/r.	Loyihalar toifasi	Loyihalar soni	Maqsad	Ajratilgan mablag' (AQSh dollarida)	Ulushi (%)
1	Energiyadan samarali foydalanish	12	Energiya tejankor texnologiyalar xaridi	106,01	25,7
2	Toza transport	5	Uskuna, texnika va transport vositalari xaridi	7,05	2,6
3	Suv samaradorligi	1	Suvni tejovchi texnologiyalar xaridi	4,40	1,1
Jami				117,45	29
Milliy valyutada chiqarilgan obligatsiyalar					
T/r.	Loyihalar toifasi	Loyihalar soni	Maqsad	Ajratilgan mablag' (So'mda)	Ulushi (%)
4	Energiyadan samarali foydalanish	4	Energiya tejankor texnologiyalar xaridi	161,1	7,2
5	Yashil binolar	1	Sertifikatlangan yashil binolar qurilishi	1007,5	44,8
6	Qayta tiklanuvchi energiya	7	Quyosh panellari xaridi	0,8	0,03
Jami				1169,4	52

Mazkur natijalar, "O'zsanoatqurilishbank" ATBning barqaror rivojlanish va ekologik mas'uliyat tamoyillariga qat'iy amal qilayotganini

ko'rsatibgina qolmay energiya tejankor texnologiyalarni joriy etish, ekologik toza transport vositalarini moliyalashtirish, suvni tejash

texnologiyalarini qo'llash hamda qayta tiklanuvchi energiyani kengaytirish orqali bank nafaqat iqtisodiy samaradorlikka, balki atrof-muhitni muhofaza qilishga ham sezilarli hissa qo'shmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda faoliyat yurituvchi nufuzli banklar qatorida Agrobankham atrof-muhitga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi loyilalarni amalga oshirib kelmoqda. Quyidagi jadvalda esa Agrobank tomonidan

chiqarilgan "yashil obligatsiyalar" mablag'laridan foydalanish natijalari keltirilgan. Unda bankning umumiy "yashil portfel" tarkibi hamda kreditlarning refinanslash va yangi loyihalar bo'yicha taqsimoti raqamli ko'rinishda keltirilgan va bu ko'rsatkichlar Agrobankning barqaror rivojlanish tamoyillariga asoslangan moliyaviy faoliyatini baholash imkonini beradi.


3-jadval

Agrobank Yashil portfelining asosiy ko'rsatkichlar [6]

Ko'rsatkichlar	Miqdor
Portfel hajmi (jami)	495 mln AQSh dollarida (8,5% umumiy portfel)
– Suv texnologiyalari	419 mln AQSh dollarida
– Quyosh panellari	22 mln AQSh dollarida
– Elektr avtomobillar	54 mln AQSh dollarida
Umumiy berilgan kreditlar soni	18 394 ta
Qayta moliyalashtirish	11 385 ta (62%)
– Yangi kreditlar	7 009 ta (38%)

Quyidagi 2-rasmdan ko'rinib turibdiki, 2017-2019 yillar oralig'ida barcha uch ko'rsatkichda nisbatan ijobiy o'sish tendensiyasi kuzatilgan. Jumladan, Yashil kreditlash bo'yicha o'sish sur'ati boshqa ko'rsatkichlarga nisbatan tezroq bo'lgan bo'lib, bu hukumatning va tijorat banklarining ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan moliyaviy

instrumentlarni faol ravishda joriy etganini anglatadi. O'zbekiston sharoitida Yashil kreditlar, odatda, energiya samaradorligi, qayta tiklanadigan energiya manbalari, chiqindilarni kamaytirish, ekologik toza texnologiyalarni joriy etish kabi maqsadli sohalarga yo'naltiriladi.




2-rasm. YaIM, umumiy va Yashil kreditlarning yillar kesimidagi o'sish trendi [7]

2020-yilda umumiy kreditlash bo'yicha pasayish kuzatilganligini ko'rishimiz mumkin va bu ehtimol COVID-19 pandemiyasi ta'sirida yuzaga kelgan iqtisodiy noaniqliklar va kredit risklarining oshganligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin va bu Yashil kreditlash o'zining nisbiy barqarorligini saqlab qolganligini anglatadi. Bu holat, bir tomondan, Yashil kreditlarning yuqori darajadagi institutsional rag'batlantirishga ega ekanini, boshqa tomondan esa, ular bo'yicha risk darajasining nisbatan pastligi va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatining yuqoriligini ko'rsatadi. Shu bois, moliyaviy institutlar bu sohada kredit portfelini qisqartirishdan ko'ra, uni saqlab qolishga intilgan.

Yashil kreditlarning YaIM bilan muvofiq o'sib borayotgani shuni anglatadiki, bu yo'nalishdagi investitsiyalar nafaqat ekologik samara, balki iqtisodiy o'sish va yangi ish o'rinlarini yaratishda ham xizmat qilishi asoslangan. Bundan tashqari, tijorat banklari o'zining kredit portfellari tarkibini diversifikatsiya qilish, barqarorlik va "ESG" standartlariga mos keladigan moliyalashtirishni kengaytirish orqali xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik qilish imkoniyatlarini yanada oshirib bormoqda.

Umuman olganda, 3-rasmda aks etgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki Yashil moliyalashtirishning O'zbekiston iqtisodiyotidagi o'rni tobora muhim o'rin egallayotganini va bu yo'nalishdagi davlat siyosati, bank sektori strategiyasi va xalqaro majburiyatlarining o'zaro uyg'unligini yaqqol namoyon etayotganligini ko'rishimiz mumkin. Bu esa yaqin kelajakda O'zbekistonning iqlim barqarorligi va Yashil transformatsiya bo'yicha milliy va xalqaro maqsadlariga erishish yo'lida muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Rasmda keltirilgan ustunli diagramma O'zbekiston Respublikasida 2016-2024 yillar mobaynida yalpi ichki mahsulot, umumiy kreditlash hajmi va Yashil kreditlashning nominal hajmdagi o'zgarishlarini tahlil qilish imkonini beradi. Rasmdagi tahlil shuni ko'rsatadiki, barcha uch indikator bo'yicha barqaror o'sish tendensiyasi kuzatilgan bo'lib, bu mamlakatda iqtisodiy faoliyatning faollashuvi, moliyaviy xizmatlar sohasining kengayishi hamda yashil iqtisodiyotga o'tish bo'yicha olib borilayotgan izchil siyosatning amaliy natijasi hisoblanadi.



3-rasm. YaIM, umumiy va Yashil kreditlarning 2016-2024 yillardagi nominal hajmda o'zgarish dinamikasi [8]

Diagrammadan umumiy kreditlash va YaIM hajmi yildan-yilga ancha sezilarli sur'atda oshib borganligi ko'rinib turibdiki. Ayniqsa, 2020-yildan keyin YaIMda kuzatilgan keskin o'sish pandemiyadan keyingi tiklanish davrida amalga oshirilgan iqtisodiy faollashtirish choralari, jumladan, kredit bozorini rag'batlantirish va investitsiyaviy muhitni yaxshilash siyosatining samarasi deb aytalolamiz.

Yashil kreditlar hajmi ham ijobiy dinamikani namoyon qilgan bo'lib, 2016-yildagi past darajadan boshlab 2024-yilgacha deyarli barqaror o'sib borgan va bu O'zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya, energiya tejamkorlik va atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan texnologiyalarga investitsiyalar jalb etilayotganini ko'rsatib turibdi.

Alohida e'tiborga molik jihat shundaki, umumiy kreditlash hajmining oshishi bilan bir qatorda Yashil kreditlar ulushining ham ortib borayotgani moliyaviy sektorning barqarorlik mezonlariga moslashayotganini isbotlaydi.

Shu asosda aytish mumkinki, O'zbekiston iqtisodiy rivojlanishida Yashil moliyalashtirish muhim sektor sifatida shakllanmoqda va uning nominal hajmdagi barqaror o'sishi, bir tomondan, ekologik loyihalarning moliyalashtirishga moslashgan bozor infratuzilmasi shakllanayotganini, boshqa tomondan esa, Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasining bosqichma-bosqich amalga oshirilayotganini anglatadi. Bu esa kelgusida O'zbekistonning uglerod neytral iqtisodiyot sari harakatida tayanch omillardan biri bo'lib xizmat qilishi kutilmoqda.

O'zbekiston bank tizimida Yashil moliyalashtirish mexanizmlarining jadal rivojlanib borishi va Yashil kreditlar turlarining ortib borishi iqtisodiyotning ekologik transformatsiyasi yo'lida muhim bosqich hisoblanadi. Hozirgi kunda tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan Yashil kreditlar tarkibi turli yo'nalishlardagi barqaror loyihalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bo'lib, ularning iqtisodiy va ekologik samaradorligi amaliyotda o'z tasdig'ini topmoqda.

Yashil kreditlash tizimi energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish, chiqindilarni qayta ishlash texnologiyalarini rivojlantirish, ekologik toza transport vositalarini ommalashtirish, hamda uy-joy va kommunal infratuzilmani modernizatsiya qilish kabi ustuvor yo'nalishlarni o'z ichiga oladi. Ushbu kreditlar, odatda, Markaziy bank stavkasiga nisbatan qulay shartlar asosida (subsidiya, imtiyozli foiz stavkalari, uzoq muddat) taqdim etilmoqda.

Kreditlar jismoniy va yuridik shaxslar, shuningdek kichik va o'rta biznes subyektlari uchun mo'ljallangan bo'lib, ularning asosiy maqsadi energiya va resurslar tejamkorligini oshirish orqali iqtisodiyotning uglerod intensivligini kamaytirish, atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish va ekologik xavfsizlikni ta'minlashdan iborat. Shu bilan bir qatorda, ushbu

moliyaviy vositalar iqtisodiyot tarmoqlarida Yashil texnologiyalarni keng joriy etishga xizmat qilmoqda.

Yashil kreditlash portfeli tarkibiy jihatdan tahlil qilinganda, kreditlar ko'proq uy-joy kommunal xizmati, transport va kommunikatsiya, moddiy-texnik ta'minotni modernizatsiya qilish, qayta tiklanuvchi energiya manbalari va chiqindilarni qayta ishlash sohalarga yo'naltirilgani kuzatiladi. Ushbu yo'nalishlardagi investitsiyalar iqtisodiy samaradorlik bilan birga, resurslardan foydalanishning maqbulligini va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi.

Yashil kreditlar uchun ajratilayotgan moliyaviy resurslarning ko'plab tarmoqlarga diversifikatsiya qilinayotgani, kredit mahsulotlarining moslashuvchan va maqsadli shakllantirilayotgani mamlakatda Yashil moliya institutlarining rivojlanayotganini ko'rsatadi. Bunday yondashuv asosan "Yashil iqtisodiyotga o'tish bo'yicha 2030-yilgacha mo'ljallangan Harakatlar rejasini" doirasida belgilangan maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qilib kelmoqda.

Muhokama. Tahlillar ko'rsatadiki, 2016-2024 yillarda yashil kreditlar nominal hajmining o'sishi YaIM va umumiy kreditlash hajmi dinamikasi bilan uyg'un tarzda rivojlanmoqda. 2020-yildagi pandemik pasayish davrida ham yashil kreditlash nisbiy barqarorlikni saqlab qoldi, bu esa adabiyotlarda ko'rsatilganidek, ushbu sektorning davlat va xalqaro moliya institutlari tomonidan institutsional qo'llab-quvvatlanish darajasi yuqoriligini tasdiqlaydi.

Shunga qaramay, bank sektorida qator to'siqlar saqlanib qolmoqda: Markaziy bankning asosiy regulativ me'yorlarida ekologik xavflarni va ESG-risklarni baholashning majburiy metodologiyalari to'liq rasmiylashtirilmagan.

Kredit portfelini uglerod intensivligi bo'yicha ("qizil" va yashil sektorlar) doimiy va aniq tasniflash statistik mexanizmi yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan.

Xulosa. O'zbekiston tijorat banklarida yashil moliyalashtirish instrumentlarining joriy etilishi nafaqat ekologik xavflarni yumshatishga, balki bank portfeli sifatini oshirish va xalqaro kapitalni jalb qilishga xizmat qilmoqda.

Tadqiqot natijalariga ko'ra quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Markaziy bank tomonidan tijorat banklari uchun ekologik va iqlim xavflarini baholash (ESMS/ESG) bo'yicha yagona prudensial normativlarni joriy etish.

2. Yashil taksonomiyani amaliyotga to'liq tatbiq etish va banklar kredit portfelining uglerod izi monitoringini raqamlashtirish.

3. Suv tejovchi hamda qayta tiklanuvchi energiya texnologiyalari uchun imtiyozli qayta moliyalashtirish mexanizmlarini va davlat subsidiyalarini kengaytirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Scholtens, B. (2009). Corporate social responsibility in the international banking industry. *Journal of business ethics*, 86(2), 159-175.
2. Soundarrajan, P., & Vivek, N. (2016). Green finance for sustainable green economic growth in India. *Agricultural Economics/Zemědělská Ekonomika*, 62(1), 35.
3. Volz, U. (2018). *Fostering green finance for sustainable development in Asia* (No. 814). ADBI working paper.

4. United Nations Uzbekistan (2024) Common Country Analysis Uzbekistan. Conducted in August–November 2024. United Nations.

5. "O'zsanoatqurilishbank" ATBning rasmiy sahifasidagi mavjud statistik ma'lumotlar.

6. "Agrobank" ATBning rasmiy sahifasidagi mavjud statistik ma'lumotlar.

7. Muallif ishlanmasi